

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 12 (1073), 2024-yil 17-yanvar, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'ZBEKISTON PREZIDENTI
YEVROPA ITTIFOQI DELEGATSIYASINI
QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
16-yanvar kuni Yevropa Ittifoqining Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti
Margaritis Sxinas boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi.



Subhat avvalida Yevroittifoqning yuqori martabali vakili YI va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi bilan samimiy qutlab, davlatimiz rahbariga Yevrokomissiya rahbari Ursula fon der Lyayen va Yevrokengash raisi Sharl Mishelning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

YI bilan ko'p qirrali sheriklikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda hamkorlik sezilarli darajada faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishelning

O'zbekistonga tashrifi, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevroittifoq rahbarlarining ikkita uchrashuvi, o'zaro bog'liqlik bo'yicha Samarqand konferensiyasi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

YI va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo'yicha qo'shma "yo'l xaritasi" amalga oshirilmoqda. "Markaziy Osiyo — YI" birinchi sammitini O'zbekistonda tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Yanvar oyi oxirida Bryusselda ikki marta taqanin transport-kommunikatsiyaviy o'zaro bog'liqligini mustahkamlashga qaratilgan yirik Investorlar forumi bo'lib o'tadi.

O'zbekiston va YI mamlakatlari o'rtasidagi savdo jadal o'sib bormoqda, o'tgan yili uning hajmi 30 foizga oshdi.

Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yuqori texnologik tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. YIning O'zbekiston uchun savdo preferensiyalari amal qilish muddati uzaytirildi.

Dolzab mintaqaviy masalalar, shu jumladan, Afg'onistonga gumanitar yordam ko'rsatish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O'ZA

Munosabat

MA'NAVYIY JASORAT
har bir insonga daxldor hayotiy zarurat

Tinchlik — bebaho ne'mat. Uning qadri, ayniqsa, dunyoning barqaror, manaman degan davlatlari ham ziddiyatlar girdobiga g'arq bo'layotgan bugungi tahlikali zamonda juda bilinmoqda. Shu ma'noda, mana shunday murakkab bir sharoitda xavfsizlik, sarhadlarimiz daxlsizligi, tinch va osoyishta hayotimiz barqarorligini ta'minlash g'oyat dolzarb vazifadir.

Tan olish kerak, bugun dunyo o'zaro tortishuvlar, sanksiyalar, jahon siyosati harbiylashayotgan vaziyatda yashamoqda. Shunday bir murakkab vaziyatda mamlakat sarhadlarini asrash, xalqimizning tinch va farovon hayotini ta'minlash davlatimiz, Qurolli

Kuchlarimiz zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirmoqda. Bugungi tahlikali vaziyatni oldindan ko'ra bilgan Prezidentimiz harbiy sohadagi islohotlarni bundan yetti yil oldin boshlab berdi. Qurolli Kuchlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, qo'shinlarning

jangovar shayligi va ruhiy tayyorgarligini oshirish, bo'inlarni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash davom ettirildi. Barcha kuch tuzilmalarining o'zaro hamkorlikdagi axborot-kommunikatsiya tizimlari Qurolli Kuchlarni boshqarish jarayoniga izchil integratsiya qilinmoqda. Harbiy boshqaruv organlari va qo'shinlarni birgalikda tayyorlash tizimiga xorijiy armiyalarning ijobiy tajribasi joriy etilmoqda.

Davomi 3-beta

Biz va dunyo

XITOIY TILIDA CHOP ETILGAN
"SAMARQAND HIKOYASI"
KITOBINING TAQDIMOTI
BO'LIB O'TDI

KITOBDA SAMARQAND VA XITOIY HAMDA BUYUK IPAK YO'LI O'RTASIDAGI TARIXIY BOG'LIQLIK HAQIDA HAM HIKOYA QILINADI

O'zbekistonning Pekindagi elchixonasida "Samarqand hikoyasi" kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbirda Xitoy akademik doiralari vakillari, sayyohlik kompaniyalari rahbarlari, shuningdek, Xitoyning yetakchi ommaviy axborot vositalari xodimlari va vatandoshlarimiz qatnashdi.

Ushbu kitob bir guruh o'zbek olimlari tomonidan tayyorlanib, Xitoyning Chet tildagi adabiyotlarni nashr etish va tarqatish boshqarmasi ko'magida "New Star Press Co,

Ltd" nashriyat-matbaa ijodiy uyi tomonidan xitoy tilida chop etildi.

Davomi 2-beta

Sharh

SUD QARORLARINING
QONUNIYLIGI VA ASOSLILIGINI
TEKSHIRISH TARTIBI QANDAY
ISHLAYDI?

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolar va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Natijada odil sudlovni amalga oshirish jarayonida shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi.

Shu bilan birga, bugungi kunda sud qarorlarini qayta ko'rish institutining tahlili mazkur institutni takomillashtirish orqali amaldagi tartibni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda. Konstitutsiyamizning 138-moddasida sud

hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiy ekanini qayd etilgan.

Davomi 2-beta

Dolzab mavzu

TA'SIRCHAN DASTAK
chiqindidan qarzdorlikning o'z vaqtida
amalga oshirilishi aholida mas'uliyat hissini
oshirib, tabiat musaffoligini ta'minlashga
xizmat qiladi

So'nggi paytlarda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda hududlarda qattiq maishiy chiqindilarni to'plash hamda olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar tarifi haqidagi xabarlar ko'paydi. Bu bejiz emas. Chunki endi mahalliy xalq deputatlari kengashlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda yagona to'lov narxi belgilanmoqda. Ularning asosiy maqsadi ham xayrli. Sanitar tozalash korxonalaridan tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, investitsiya majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi hamda sohada yangi ish o'rnlari yaratilishini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi daromadi va turmush darajasi inobatga olinadi.

Davomi 4-beta

MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA
IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASH
BO'YICHA USTUVOR VAZIFALAR
MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni
2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni
ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan
videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

2023-yilda mamlakatimizda iqtisodiy o'sish 6 foizni tashkil qildi. Jumladan, sanoat 6, xizmat ko'rsatish 6,8, qurilish 6,4, qishloq xo'jaligi 4,1 foiz o'sgan.

Bu yil yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 6 foizga ko'paytirib, 100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Yig'ilishda shu boradagi vazifalar, zaruriy chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari buning uchun, avvalo, eng katta islohotchi bo'lgan iqtisodiy kompleks xodimlari juda qattiq ishlashi kerakligini ta'kidladi.

Masalan, umumiy sanoat hajmi o'sgani bilan, ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymat 40 foizdan oshmayapti. Bular asosan, importga qaramlik, energiya iste'moli yuqoriligi va ortiqcha xarajalar ko'pligi sababli bo'lmoqda.

Shu bois, iqtisodiy kompleks rahbarlari va barcha davlat korxonalar uchun "2024-yil — tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili" bo'lishi lozimligi ta'kidlandi. Xaridlar va logistika maqbullashtirish, energiya resurslarini tejash va raqamlashtirish orqali qancha xarajati kamaytirish mumkinligi tarmoqlar kesimida ko'rsatib o'tildi.

Joriy yilda yirik tarmoqlarda qo'shilgan qiymatni 45 foizdan oshirish, tannarxni 15 foizga kamaytirish, jami sanoatda 7 foiz o'sishni ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilandi.

Shu bilan birga, iqtisodiy kompleksdagi rahbarlar faoliyatini o'ylik, choraklik va yillik samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bilan bog'lash, o'rinsoslar sonini ko'rib chiqish taklifi ilgari surildi.

Yig'ilishda moliyaviy intizom masalasi-ga alohida o'xtalib o'tildi.

O'tgan yili ayrim davlat korxonalar tomonidan dividend va soliq to'lovlari bo'yicha byudjetga 8 trillion so'm tushum ta'minlanmagan. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida soliq tushumlari 20 foiz o'sgan bo'lsa, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryoda bu ko'rsatkich 7 foizga ham yetmagan.

Bunday holatlar hududiy soliq bo'limi boshliqlari va o'rinsoslarini, mahalladagi soliqchilarning ishi sustligini ko'rsatadi. Shu bois, bu tizim qayta ko'rib chiqilib, yangi yo'nalishlar belgilandi.

Birinchi yo'nalish — 40 mingta budjet tashkiloti bilan ishlash vazifasi tumanlardan Soliq qo'mitasida yangi tashkil qilinadigan Tumanlararo budjet tashkilotlari inspeksiyasiga o'tkaziladi. Ushbu inspeksiya to'liq raqamlashtirish bo'ladi va G'aznachilik elektron tizimiga integratsiya qilinadi.

Ikkinchi yo'nalish — Qo'mitada soliq qarzini undirish bo'yicha ham tumanlararo

inspeksiya tashkil etiladi. Unga Majburiy ijro byurosida mavjud vakolatlar beriladi. Buning hisobiga, tumanlardagi qo'shimcha 200 nafar soliqchini mahallabay ishlashga o'tkazish imkoni bo'ladi.

Uchinchi yo'nalish — respublika soliq tushumining 50 foizini beradigan 80 ta eng yirik korxonaga va 35 ta tijorat banki bilan ishlaydigan alohida tizim bo'ladi. Buning uchun Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha inspeksiya tarkibida yangi tuzilma tashkil qilinib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan bevosita ishlaydi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga soliq tushumini o'z vaqtida ta'minlash, korxonalar xarajati asosid o'sishining oldini olish bo'yicha vazifalar qo'yildi.

Bojxona sohasiga to'xtalinar ekan, o'tgan yili import bo'lgan tovarlarga salkam 60 trillion so'mlik imtiyoz qo'llangani, lekin ularning samaradorligi bo'yicha yetarli tahlil yo'qligi qayd etildi. Shu bois, imtiyoz bilan kirgan tovarlarni birma-bir o'rganib chiqishga ko'rsatma berildi.

Budjet tushumi uchun yana katta xarajalar bu — xususiy lashtirish va yerlarni auktsion orqali sotishdir. Lekin xususiy lashtirish dasturiga kiritilgan 484 ta davlat aktivi savdoga chiqarilmay turibdi.

Masalan, savdoga qo'yilgan o'nlab don korxonalar sotilmasdan turibdi. Negaki ularning bahosini belgilashda kamchiliklar bor.

Vazirlar Mahkamasiga bu boradagi qo'llanilgan barcha qarorlar 20 trillion so'm tushumini ta'minlaydigan yangi xususiy lashtirish dasturini tayyorlash topshirildi.

O'tgan yili yerlarni auktsion orqali sotishdan 1 trillion so'm tushum bo'lgan, 12 mingta yangi loyiha qo'shilgan. Bunday imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida yil yakuniga qadar 70 ta, kelgusi yili barcha tumanlarning master rejalarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Bugungi kundagi eng dolzarb masala bu — yashirin iqtisodiyot. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xizmatlar, qurilish, sanoat sohalorida katta miqdordagi aylanma "soya"da qolmoqda.

Davlatimiz rahbari yashirin iqtisodiyot adolati raqobatga, halol tadbirkorlar faoliyatiga to'siq bo'layotganini aytib, qo'shimcha choralarini ko'rsatib o'tdi.

Hozirda yashirin iqtisodiyot va iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan 14 ta idora tarqoq holda shug'ullanmoqda. Bu ishlarni muvofiq lashtirish va kuchaytirish maqsadida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlariga qarshi kurashish departamenti vakolatlarini kengaytirildi. Bu departament eng zamonaviy vositalar va

yetuk mutaxassislar bilan ta'minlanib, uning huzurida ilmiy-tahliliy va o'quv markazi ochiladi. Shu bilan birga, Bosh prokuraturada ham yashirin iqtisodiyot bo'yicha alohida boshqarma va uning hududiy bo'limlari tashkil qilinadi.

Yig'ilishda byudjet xarajatlarning samaradorligi masalasi ham ko'rib chiqildi.

O'tgan yili byudjetdan 1,2 trillion so'mlik noqonuniy xarajat hamda 200 milliard so'mlik kamomad va o'g'riliklarga yo'l qo'yilgani aniqlangan. Sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi sohalaridagi dasturlarga ajratilgan mablag'lar to'liq ishlatilmagan. Shuningdek, aslida ishlamaydigan xodim yoki bajarilmagan ish uchun haq yozish, asossiz ssuda yoki mukofot pullari olish kabi holatlar ko'paygan.

Bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini qoniqarsiz ekanini ko'rsatib o'tildi. Shu bois, mazkur inspeksiya Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlariga qarshi kurashish departamentiga o'tkazilishi belgilandi.

Bu yil budjetda ko'zda tutilgan 313 trillion so'mlik xarajatning to'g'ri sarflanishini nazorat qilish vazifasi qo'yildi.

Inflyatsiyani kamaytirish masalasi ham dolzarb. Ko'rilgan choralar natijasida o'tgan yili inflyatsiya 9 foizdan oshmadi.

Mahsulotlar inflyatsiyasini oziq-ovqatni ko'paytirish orqali jilovlash mumkinligi ta'kidlanib, bu bo'yicha qishloq xo'jaligi vaziri va hokimlarga ko'rsatmalar berildi.

Umuman, joriy yilda ham inflyatsiyani 9 foizdan tushirish choralarini muhokama qilindi. Bank tizimi barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotga kreditlar yo'naltirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Bozor mexanizmlari asosida kredit stavkalarini kamida 2-3 foizga tushirish bo'yicha dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda aholi bandligini ta'minlash masalasi alohida e'tibor qaratildi. Bu bo'yicha yaqinda qabul qilingan dasturni samarali amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

Bandlik tizimiga kiruvchi kasbga tayyorlash muassasalari hamda tashqi mehnat migratsiyasidagi ishlar talab darajasida emasligi qayd etildi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga bu kabi kamchiliklarni bartaraf etib, aholini kasbga o'qitish va ish o'rnlari yaratish yuzasidan qo'shimcha topshiriqlar berildi.

Yig'ilish yakunida iqtisodiy kompleks rahbarlari, vazirlar va hokimlar joriy yilgi rejalarini bo'yicha axborot berdi.

O'ZA



Sharh

SUD QARORLARINING QONUNIYLIGI VA ASOSLILIGINI TEKSHIRISH TARTIBI QANDAY ISHLAYDI?



Bobur ISLOMOV,
Toshkent shahar sudi raisi
o'rinbosari, Fuqarolik ishlari
bo'yicha sudlov hay'ati raisi

Boshlanishi 1-betda

2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab tumanlararo sudlar tomonidan birinchi instansiyada sudlangan ishlar viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqish amaliyoti joriy etildi.

Sudda ish yuritish tezkorligi va sifatini oshirish, ish bo'yicha yakuniy qarorlar qabul qilish muddatini asossiz kechiktirishni bartaraf etish, har bir sud instansiyasining zimmasiga ish bo'yicha yakuniy qaror chiqarish majburiyati yuklatilishini, sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlariga taftish instansiyasi joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonun bilan sud qarorlarini qayta ko'rishda viloyat sudlari hamda ularga tenglashtirilgan sudlarning imkoniyatidan samarali foydalanish, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish

maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Xususan, sudning ajrimi ustidan shikoyat berish masalasida yangi institut — sud ishlarini taftish tartibida ko'rib chiqish amaliyoti joriy etildi. Ya'ni ushbu hujjatga asosan, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari tomonidan birinchi bosqichda ko'rilgan ishlar viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish vakolati berildi.

Bunday tartib o'rnatilishi natijasida sudlarda har bir ish bo'yicha yakuniy to'xtatma kelish orqali sud qarorlarining barqarorligi ta'min-

lanib, fuqarolar va yuridik shaxslar sarson bo'lishining oldi olinadi. Endilikda, mazkur qonun talablari bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklarning aniq yechimiga qaratilgan huquqiy mexanizmlar yaratilmoqda.

Sud hal qiluv qarorlari va ajrimlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirish shikoyat va bildirilgan protest asosida quyi sud chiqargan hal qiluv qarorlari, ajrimlarining ularga qo'yiladigan talablarga javob berishini tekshirishga qaratilgan yuqori sudda ish yuritish (sud muhokamasi) jarayoni hisoblanadi.

Qayd etilganidek, fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishlar odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, qonun va sud oldida tenglik, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi kabi prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Mazkur tartibning qonunda belgilanishi odil sudlovga erishish imkoniyatini yanada kengaytirdi. Bunda birinchi instansiyada sudning qaroridan norozi taraflar viloyat sudiga apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilib, ularning ham natijasidan qoniqmasa, ushbu ish mazkur sudlarda taftish tartibida ko'rib chiqiladi. Sud ishidan yana norozi bo'lingan taqdirda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko'rib chiqilgan ishlar Oliy sudning sudlov hay'atida qayta ko'riladi.

Shuningdek, kassatsiya instansiyasining joriy etilishi kelgusida manfaatdor shaxslar tomonidan qonuniy kuchga kirgan sud hujjati ustidan shikoyat keltirish imkonini beradi.

Masalan, suddagi bir taraf o'zi qatnashgan ish bo'yicha qabul qilingan sud hal qiluv

qarori yoki ajrimidan qonuniy kuchga kirganidan keyin qaysidir holatga ko'ra, norozi bo'lib qolishi mumkin. Ushbu holatda shaxs apellyatsiya shikoyati berish muddatini o'tkazib yuborgan bo'lsa, ammo unda shikoyat keltirishda protsessual huquqidan foydalanishda kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqi mavjud bo'ladi.

Fuqarolik ishini apellyatsiya va kassatsiya tartibida qayta ko'rish — sud protsessi ishtirokchilarining sud hujjatining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirish huquqini ta'minlovchi muhim huquqiy institut hisoblanadi.

Qonunga muvofiq, apellyatsiya shikoyati (protesti) sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiyada sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida berilishi mumkin.

Taftish instansiyasi birinchi instansiyada sudning apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori hamda apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudning ajrimlari ustidan berilgan shikoyatni (protest) ko'rib chiqish natijalariga ko'ra quyidagilarga haqli:

— hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni o'zgarishsiz qoldirish;

— ularni to'liq yoxud qisman bekor qilish va yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilish;

— hal qiluv qarori, ajrim, qarorni to'liq yoki qisman o'zgartirish;

— Fuqarolik protsessual kodeksining 372-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, hal qiluv qarori, ajrim,

qarorni bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudiga yuborish;

— hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni to'liq yoki qisman bekor qilishga va ushbu Kodeksda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, arizani ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni to'liq yoki qisman tugatish;

— ayrim sud hujjatlarini bekor qilishga va ish bo'yicha ilgari qabul qilingan sud hujjatlaridan birini o'z kichida qoldirishga haqli.

Taftish instansiyasi sudning ajrimida, qarorida bayon qilingan ko'rsatmalar mazkur ishni yangidan ko'rayotgan sud uchun majburiydir.

Taftish instansiyasi sudi u yoki bu dalilning ishonchligi yoki ishonchsizligi to'g'risidagi, ayrim dalillarning boshqalaridan ustunligi haqidagi, ish yangidan ko'rilgan taqdirda qanday qaror chiqarilishi kerakligi to'g'risidagi masalalarni oldindan hal qilib qo'yishga haqli emas.

Endi yuqori instansiyada sudlariga yanada katta mas'uliyat yuklanib, ishni yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga yuborish tartibining bekor qilinishi ham sud hujjatidan norozi shaxsning yuqori instansiyaga ishonchini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sud qarorlarining qonuniyligi va asosiligi qayta ko'rib chiqishda apellyatsiya, kassatsiya va taftish bosqichlarining takomillashirilishi fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish, ishlarini sudda ko'rish sifatini oshirish hamda xolis, adolati va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish uchun taraflarning tengligini va tortishuvchanligini amalda ta'minlashga qaratilgan bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz va dunyo

XITOIY TILIDA CHOP ETILGAN

"SAMARQAND HIKOYASI" KITOBINING TAQDIMOTI BO'LIB O'TDI

KITOBDA SAMARQAND VA XITOIY HAMDA BUYUK IPAK YO'LI O'RTASIDAGI TARIXIY BOG'LIQLIK HAQIDA HAM HIKOYA QILINADI

Boshlanishi 1-betda

Taqdimotda kitob Buyuk ipak yo'lining durdonasi sifatida jahonga mashhur bo'lgan qadimiy Samarqand shahri tarixiga bag'ishlangani haqida ma'lumot berildi. Unda tarixiy xronologik tartibda shaharning paydo bo'lishidan hozirgi kungacha bo'lgan mingyillik tarix tasvirlanadi. Kitobda Samarqand va Xitoy hamda Buyuk ipak yo'li o'rtasidagi tarixiy bog'liqlik haqida ham hikoya qilinadi.

Samarqand Buyuk ipak yo'lining jahonga mashhur durdonasi sifatida Osiyo va Yevropa o'rtasida o'zaro savdo, texnologiyalar, madaniyatlar almashinuviga katta hissa qo'shgan ushbu afsonaviy yo'lining shonli o'tmishi yodgorligi ekani ta'kidlandi.

Taqdimotda so'zga chiqqanlar bugun Samarqand yirik xalqaro ahamiyatga molik tadbirlar o'tkaziladigan makon sifatida e'tirof etilayotganini alohida qayd etdi. Xususan, 2022-yil sentabr oyida ushbu qadimiy



shaharda Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi yig'ilishi yuqori saviyada o'tkazildi.

Xitoyning Chet tillardagi adabiyotlarni nashr etish va tarqatish boshqarmasi vitse-prezidenti Yuy Tao o'z chiqishida Samarqand O'zbekistonning ikkinchi yirik shahri va qadimiy Ipak yo'lidagi muhim markazlardan biri ekanini ta'kidladi.

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Samarqand hikoyasi" kitobining muqaddimasida yozganidek, bu qadimiy va navqiron shahar, betakror sharqona ertak, rang-barang, qadimiy va muhtasham tarixiy diqqatga sazovor joylarga ega voha, jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir, — dedi Yuy Tao. — "Samarqand hikoyasi" ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy almashinuvning muhim vositasiga aylanishiga ishonaman. Ushbu kitobning Xitoyda nashr etilishi bilan bu shahar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun xitoyliklar mazkur qadimiy kentga yo'l olishi shubhasiz.

"New Star Press Co, Ltd" nashriyot-matbaa ijodiy uyi prezidenti Ma Jusyun



Xan XUA,
Pekin xalqaro muloqotlar klubi
bosh kotibi:

— O'zbekiston men uchun qalbimga yaqin mamlakat. O'tgan yili Toshkent va Samarqandda bo'ldim. Turli sivilizatsiyalar chorrahasi, muhim tarixiy voqealar guvohi bo'lgan Samarqandga doim havas qilaman. Samarqand nafaqat tarixiy, balki zamonaviy shahardir. Keyingi yillarda bu yerda zamonaviy bino va inshootlar barpo etildi.

O'zbekiston — Xitoy iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish uchun ham ulkan imkoniyatlar mavjud. Bugun biz mamlakatlarimiz va hududlarimiz o'rtasidagi hamkorlik barcha sohalarda jadal rivojlanayotganini ko'rib turibmiz. Bu xalqlarimiz farovonligiga xizmat qilishi shubhasiz.

o'z nutqida qadimiy Ipak yo'li Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi azaliy do'stlikdan dalolat berishini ta'kidladi.

— "Dunyo ko'zgu" va ko'ngil bog'i" nomi bilan mashhur bo'lgan Samarqand Xitoy va butun dunyoni bog'lovchi, tarix va zamonaviylik uyg'unlashgan yo'lining durdonasi bo'lib, hozirgi kunda jahonga mashhur ilmiy-madaniy markazga aylandi, — deya qayd etdi Ma Jusyun. — "Samarqand hikoyasi" kitobi "Ipak yo'lidagi yuz shahar tarixi" keng qamrovli turkumning muhim nashridir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga ushbu kitobga so'zboshi yozgani va kitobning nashr etilishi O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga, ikki davlat o'rtasidagi madaniy almashinuvlarni rivojlantirishga va xalqlarimiz o'rtasidagi masofani yanada qisqartirishga xizmat qilishini yuksak baholagani uchun alohida minnatdorlik bildiraman.

"Dunyo" AA
Pekin

YAPONIYADAGI VATANDOSH AYOLLAR MASLAHAT KENGASHI RAISI LAVOZIMIGA TOKIO CHET TILLAR UNIVERSITETI DOTSENTI, YURIST, TOKIO HUQUQ-TARTIBOT IDORALARIDA OG'IR AHVOLGA TUSHGAN, HUQUQBUZARLIK SODIR QILGAN VATANDOSHLARIMIZGA YURIDIK YORDAM VA TARJIMONLIK FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANUVCHI MOHINUR TURDIOXUNOVA TAYINLANDI.



KUNCHIQAR YURTDAGI VATANDOSH AYOLLAR MASLAHAT KENGASHI

O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasida faol, olim va tadbirkor vatandosh xotin-qizlar ishtirokida gibridda uchrashuv o'tkazilib, diplomatik vakolatxona qoshida Yaponiyadagi vatandosh ayollar Maslahat kengashi tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston elchisi Muh-sinxo'ja Abdurahmonov so'zga chiqib, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohalarda o'z qobiliyatini va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish va rag'batlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganini ma'lum qildi.

Shuningdek, yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish hamda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunchilik hujjatlarini qabul qilingani, bu, o'z navbatida, ayollarga bo'lgan ulkan e'tibor namunasini ekani alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birga, tadbir qatnashchilariga xorijda istiqomat qilayotgan vatandosh xotin-qizlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ularga zarur axborot-maslahat va huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish bo'yicha hamkorlikda ishlar tashkil qilish lozimligi bildirildi.

"Vatandoshlar" jamoat fondi boshqaruv raisi Odiljon Sattarov o'zbekistonlik vatandosh xotin-qizlar kengashi raisi lavozimiga asosiy vazifalari haqida batafsil ma'lumot berdi. Shuningdek, fond Yaponiyadagi vatandoshlar bilan hamkorlikda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga tayyorligini ma'lum qildi.

Tadbir davomida Yaponiyadagi vatandosh ayollar Maslahat kengashi raisi lavozimiga Tokio chet tillar universiteti dotsenti, yurist, Tokio huquq-tartibot idoralarida og'ir ahvolga tushgan, huquqbuzarlik sodir qilgan vatandoshlarimizga yuridik yordam va tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi Mohinur Turdioxunova tayinlandi.

Uchrashuv yakunida ishtirokchilar tomonidan kengash faoliyatini yo'lga qo'yish va istiqboldagi rejalarni bo'yicha o'zaro fikr almashildi hamda yurtimizdagi mutasaddi idoralar bilan yaqindan hamkorlik qilishga kelishib olindi.

"Dunyo" AA
Tokio

Soxayl XON,
Shanxay hamkorlik
tashkiloti bosh kotibi
o'rinbosari:

— Bugun O'zbekiston elchixonasida Samarqand haqidagi kitob taqdimotida ishtirok etish menga katta mamnuniyat bag'ishladi. Bu yerda ushbu go'zal shahar haqida juda ko'p qiziqarli va foydali ma'lumotlar oldim.

Ta'kidlash joizki, Samarqand nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo, jumladan, Pokistonning ham faxri

hisoblanadi. Tarixiy davrlardagi ilm-fan, madaniyat va ta'lim markazlari haqida gap ketganda, ko'pchilik birinchi gald Samarqandni yodga oladi.

2022 va 2023-yillarda ushbu shaharda SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari sammiti, YTTB sammiti va boshqa muhim tadbirlar o'tkazildi. Samarqand bugungi kunda dunyoning turli burchaklaridan kelgan olim va siyosatchilarni birlashtirgan muloqot markazi bo'lib xizmat qilayotganini isbotladi.

Munosabat

MA'NAVIY JASORAT

har bir insonga daxldor hayotiy zarurat



Toshpo'lat MATIBAYEV,
sotsiologiya fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

“Xalq va armiya — bir tanu bir jondir” ezgu tamoyili o'z natijasini berdi. Harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyati samarasida harbiy shaharchalar infratuzilmasi to'liq yangilandi, yangi o'quv poligonlari barpo etildi. Vatan himoyachilarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi mustahkamlandi. Harbiylar uy-joy bilan ta'minlanmoqda. Harbiy ayollar mehnatini rag'batlantirish maqsadida “To'maris” nishoni ta'sis etildi. Harbiy texnikalar, qurol-yarog', innovatsion texnologiyalarni sohaga jalb qilish e'tibor markaziga ko'chdi. Natijada aksariyat davlatlar havas qiladigan kuchli armiya shakllandi.

Ammo globallashayotgan davrda kechagi rejalar bugunga to'g'ri kelmayapti. Yil boshida ayni mudofaa tizimi tahlil qilinishi bejiz emas. Zero, tinchlikni asrab-avaylash davlatimiz siyosatining bosh maqsadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Qurolli Kuchlarimiz oldida turgan vazifalar, kamchiliklarni bartaraf etish, armiyamizning jangovar qudratini, vatanparvarlik va daxldorlik hissiini oshirish borasida kuyinchaklik bilan bildirgan fikrlari muayyan xulosalar chiqarishga undaydi. Davlatimiz rahbarining ma'ruzasini eshitganimda, ko'nglim g'urur-iftixorga to'ldi. Axir insoniyat ko'z o'ngida jahon miqyosida yangi tartib tamoyillar shakllanayotgan, yangi kuch markazlari va xavf-xatar o'choqlari paydo bo'layotgan bir kuzda eng katta boyligimiz bo'lgan tinchlikni asrash, xalqimiz farovonligini ta'minlashdagi kelajak rejalar, ustuvor vazifalar belgilab olinayapti.

Biz ulardan chiqarishimiz kerak bo'lgan xulosalardan biri shundaki, yangi O'zbekiston armiyasini kechagi mezonlar bilan qurib bo'lmaydi. Tinch yashamoqchi ekanmiz, shunga yarasha qudrati armiyamiz bo'lmog'i shart. Buning ortida ham aslida mashg'ulotli mehnat, uyqusiz, bedor tunlar yotadi.

Biz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur singari buyuk zotlarning avlodlari, o'z ona yurtimizda ozod va mustaqil yashashga haqlimiz. Vatanimiz tinchligini ko'z qorachig'iday asrab, elimiz, yurtimiz sha'ni, or-nomusimiz, qadr-qimmatimiz, munis onalarimiz, ayollarimiz va qizlarimizni himoya qilib, matonatli millat, buyuk va jasoratli xalq bo'lib yashashga munosibmiz. Eng muhimi, qalbimizda g'ururimiz, bilagimizda kuchimiz bor ekan, tinchlikni himoya qilish, unga xavf solayotgan kuchlarga qarshi kurashishga, qaddimizni tik tutib, boshimizni baland ko'tarib yashashga qodirmiz.



hisoblanadi. Sohibqiron bobomizning Vatanga sadoqat, el-yurtini ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun har tomonlama o'makdri.

“Temur tuzuklari” asaridagi vatanparvarlik g'oyalarning yoshlarni yurt qayg'usi va uni ardoqlash ruhida tarbiyalashdagi o'rni beqiyos. Ushbu bebaho asardan farzand tarbiyasi, Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasini yuksaltirish, milliy tariximizni chuqur o'rganishda foydalanish, shuningdek, ma'naviy-axloqiy hamda harbiy merosi, uning ibratli hayoti va harbiy-siyosiy faoliyatini keng targ'ib etish maqsadga muvofiq. Zero, buyuk Amir Temur dunyoga adolat tantanasini meros qoldirdi. Bu meros bugun ham, keyin ham o'zining so'nmas va doimo intiluvchan ruhi bilan dunyo xalqlarini hamjihatlik va bag'rikenlikka, to'g'ri va halol yashashga, mehribon bo'lishga chorlab turadi.

Jaloliddin Manguberding harbiy merosi ham bebaho. Ulug' sarkarda harbiy faoliyati davomida qo'shini tarkibida, boshqarish tizimida, qurol-yarog' ta'minotida, jangovar harakalar va boshqa harbiy jabhalarda ulug' ajdodlariga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni saqlab qola olgan. Ayni paytda u janglarda harbiy bilimdoni, yangi harbiy taktikalarning yaratuvchisi, qo'shinni mohirlik bilan boshqara oladigan lashkarboshi, qo'rqmas, mard, qahramon kurashchi, Vatan, xalq ozodligi uchun jonini baxsh etgan fidoyi inson sifatida tarix sahifalariga muhtarladi.

Sulton Jaloliddinning harbiy taktikasida eng ko'p qo'llanilgan jang usullaridan biri, bu — dushman qo'shini markaziga hujum qilib, uni parokanda qilish, uning o'rnatilgan yorib kirib, qirib tashlashdan iborat bo'lgan. Chunki markazning halokati qo'shinning mag'lubiyatiga olib kelgan. Jaloliddinning oz sonli lashkarlar bilan dushmanning ko'p sonli qo'shini ustidan doimo g'alaba qozonish sirlaridan biri ham ana shunda bo'lgan.

Mana nima uchun boy harbiy merosimizni o'rganish kerak. Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ulg'aya boradi, tug'ilib o'sgan yurtiga mehri ortadi. Bu O'zbekiston tuprog'ida yashayotgan, uni o'z Vatani deb biladigan barcha yurtodoshlarimizga birdek daxldordir. Xalqimiz boy tarix, yuksak madaniyat va buyuk ma'naviyatga ega. Zero, eng qat'iy va tahlikali davrlarda millatimizga umid va ishonch bergan, uni yovlarga qarshi kurashga undagan, ajdodlarimizni ilmiy kashfiyotlar, harbiy zarfalariga, ma'rifat alini baland ko'tarib jaholatga qarshi chiqishga chorlagan beqiyos kuch — ma'naviy jasorat tuyg'usidir.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida mamlakatimiz mudofaasi va xavfsizligini mustahkamlash borasida 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilib, dunyoda ro'y berayotgan turli nizolar sharoitida Qurolli Kuchlarimiz jangovar qobiliyatini oshirish yuzasidan navbatdagi vazifalarni belgilab berdi, bu ham bo'lsa xalqimizning tinch-osoysishta hayotini ta'minlash, mamlakatimiz sarhadlari xavfsizligi va hududiy xavfliq, suverenitetini mustahkam va ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.



Buyuk harbiy sarkarda, strateg, ilm-fan, madaniyat homiysi bo'lgan Sohibqironning muvaffaqiyatli g'alabalari, olib borgan chuqur o'ylangan strategiya va taktikalari esa mutlaqo' noyobdir. Bu bejiz emas. Chunonchi, bugun dunyoning ko'plab davlatlari harbiy siyosatida Amir Temur bobomiz o'g'itlari va boshqaruv tuzumlaridan keng foydalanib kelinmoqda.

shu manfaatlar qurboniga aylantirish, jamoatchilik fikrini chalg'itishga urinishdek axborot xurujlari ko'lami kengayib bormoqda. U yoki bu mamlakatni yomonotliq qilish, o'z tanlagan yo'lidan qaytarishga urinishlar zamirida tor manfaatlar yotganini barcha birdek tushunib yetmayapti. Boshqacha aytganda, odamlar ongini, dunyoqarashini u yoki bu g'oyalari ta'siriga bo'syundirishda soxta axborotlar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston ham bunday xatarlardan xoli emas. Birinchidan, atrofda bizni xushlamaydigan, mustaqil siyosatimizni, o'zimizni o'z kuchimiz bilan himoya qilish yo'lidagi harakatlarni qabul qila olmaydigan, hanuzgacha bizga eskicha ko'z bilan qarayotgan, O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'yi ortib borayotganini ko'rib, kayfiyati buzilayotgan kuchlar yetarli. Ikkinchidan, bunday xurujlar zamirida mintaqaviy davlatlarning orasini buzish, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish va o'zaro ishonchini yo'qotish maqsadida ig'vogariy harakatlarni ko'rish mumkin.

Binobarin, Qurolli Kuchlarni raqamlashtirishni jadallashtirish, harbiy ta'lim dasturlarini ilg'or tajriba asosida yangilash, pedagoglar malakasini oshirish, Harbiy injenerlar maktabini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berilib, mamlakatimizning safarbarlik sohasidagi tayyorgarligi va hududiy mudofaasini tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish vazifasi qo'yildi, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy va jangovar tayyorgarligini kuchaytirish, yoshlarda

kundalik ishimiz, muqaddas burchimiz ekan, jamiyatning har bir a'zosi — har birimiz avvalo, o'z vazifamizni vijdonan ado etishimiz, g'arazli maqsadni ko'zlagan axborot xurujlari, uydirma va mish-mishlarga berilmasdan, sodir bo'layotgan voqealarga ochiq ko'z bilan qarash, o'z uyimiz, o'z mahallamiz, shahar-qishlog'imizda osoyishtalik barqaror bo'lishi uchun jon kuydirishimiz, mana shu haqiqatni chuqur anglab, ogohlik va hushyorlikni hayotimiz mezoniga aylantirishimiz zarur.

Prezidentimiz dunyoda axborot xurujlari kengayib borayotganini ham alohida qayd etdi. Bugungi notinch zamon, ayniqsa, yon-atrofimizdagi vaziyat keskinlashib borayotgan bir paytda do'stni dushmanidan, o'qni qoradan ajratish, yurtodoshlarimizni doimo sezgir va ogoh bo'lib yashashga dav'at etishda o'z hissamizni qo'shishimiz alohida ahamiyatga ega. Tan olish kerak, qandaydir tor g'oyalari niqobi ostida o'z manfaatlarini ilgari surish, imkoniyatlari nisbatan cheklangan mamlakatlarni ana

Nuqtayi nazar

TADBIRKORLAR FAOLIYATIGA SOLIQCHILAR EMAS, ELEKTRON TIZIM BAHO BERADI



Botirbek TO'RAZODA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Umuman olganda, soha vakillari ularga yaratib berilayotgan qulay sharoit, qator yengillik va erkinliklardan kuch olib, iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylanib boryapti. Mamlakatimizda qulay tadbirkorlik muhiti yaratish borasidagi ishlar samarasidan yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilayotgani, ishbilamoyon safi tobora kengayib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ular bugun o'z biznesini yo'lga qo'yib, o'zi va oilasi bilan bir qatorda, mahallasi, el-yurtimiz farovonligiga munosib hissa qo'shyapti.

Bugungi kunda iqtisodiy-ijtimoiy sohani isloh qilish, erkin tadbirkorlik faoliyatini qaratilish borasidagi islohotlar mantiqiy izchil-

Bugun iqtisodiy taraqqiyotni tadbirkorlar faoliyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, tadbirkorlar qancha ko'p bo'lsa va ko'proq daromad ko'rsa, davlat ham shuncha boy bo'ladi. Shu bois, ishning ko'zini biladigan, vatanparvar va fidoyi tadbirkorlar davlatimiz tomonidan alohida qo'llab-quvvatlanmoqda.

likda davom ettirilyapti. Xususan, yaqin-yaqin-gacha tadbirkorlardan mavjud ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda talab qilish holatlari bor edi. Joriy yildan boshlab 34 turdagi hisobot bekor qilinmoqda. Bu tadbirkorlarga nima beradi? Avvalo, soha vakillari uchun eng qadri va qimmatli jihati — vaqt tejalandi. Qolaversa, har yili 21 mingdan ortiq tadbirkorning 500 million so'm xarajati o'zida qoladi. O'z navbatida esa, tejalagan vaqt yangi biznes loyihalar ustida ishlash, mablag' esa biznesni yanada rivojlantirish, yangi ish o'rinishini tashkil etishga turki bo'ladi.

Joriy yilga “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” deb nom berilishi zamirida ham chuqur ma'no mujassam. Bu yurtimiz aholisining 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etadigan yoshlar hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining tom ma'nodagi lokomotiviga aylangan biznes sohasi yanada qo'llab-quvvatlanadi, degani.

Darhaqiqat, O'zbekiston biznes yuritish uchun yildan-yilga qulay mamlakatga aylanib bormoqda. Shubhasizki, 2024-yilda tadbirkorlarga yanada keng qulayliklar yaratiladi, ularning erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun bor kuch va imkoniyatlar to'liq safarbar etiladi. Bu, o'z navbatida, 5 million aholi bandligini ta'minlashda qo'l-

keladi. Ushbu maqsadlar uchun 83 trillion so'm va 275 million dollar kredit hamda subsidiyalari yo'naltirilishi tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, soha vakillarining samarali mehnat qilishiga imkon yaratadi.

Mazkur jarayonda reyting joriy qilinishi tadbirkorlar faoliyati uchun o'ziga xos rag'bat bo'ladi. Buning ahamiyati haqida davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida aytilgan edi. Shundan so'ng mazkur reytingning mezonlari va tartib-tamoyillari ishlab chiqildi. Unga ko'ra, tadbirkorlar faoliyat davri, rentabellik darajasi, to'lov intizomi, aholi bandligidagi o'rni va ish haqi kabi 23 ta mezon asosida 4 toifaga ajratiladi. Bu soliq, adliya va sud organlari ma'lumotlari asosida shakllanadi. Har bir tadbirkor o'z o'rni va bahosini real vaqtda bilib borishi mumkin bo'ladi.

Reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi bir kunda va boshqa soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'lov uchun kunda qaytarib beriladi. Eng muhimi, tovarlarni import qilishda va sotishda qo'shilgan qiymat solig'i ni bojxona va soliq organlarida o'zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, auksionda olingan davlat aktivlari va yer uchastkalari qiymatini bo'lib to'lash muddati 3 yildan 5 yilgacha uzaytiriladi. Bunda kamida 15 foiz miqdorida dastlabki to'lovni biroy-la amalga oshirganda, qolgan summaga yillik foizlar hisoblanmaydi.

Yana bir muhim jihati shundaki, endi tadbirkorlar faoliyatiga soliqchilar emas, elektron tizim baho beradi. Ya'ni inson omilli cheklanishi hisobga sohada ochiqlik va shaffoflik ta'minlan-

nadi. Bu, o'z navbatida, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirishga xizmat qiladi. Sodda qilib aytganda, kelgusida subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar mazkur reytingdan kelib chiqib beriladi. Ko'rsatkichi past bo'lganlar intizomli tadbirkorlar safiga kirish va ko'proq imkoniyatga ega bo'lish uchun harakat qiladi.

Quvonarlisi, bu reyting tadbirkorlarga o'z hamkorlari to'g'risida ishonchli ma'lumot





Dolzarb mavzu

TA'SIRCHAN

dastak

chiqindidan qarzidorlikning o'z vaqtida amalga oshirilishi aholida mas'uliyat hissini oshirib, tabiat musaffoligini ta'minlashga xizmat qiladi

Mutaxassislarning qayd etishicha, chiqitga chiqqan shisha idish — bir million yil, plastik ichimliklar idishlari 450 yil, alyuminiy konserva bankasi 80-200 yil, kuchlanish batareyalari 100 yil, neylon mato 30-40 yil, charm poyabzal 25-40 yil mobaynida chiriydi va hokazo.

2024-2026-yillarda Toshkent, Angren, Andijon, Buxoro, Termiz shaharlari va Toshkent tumanidagi ko'p qavatli uylar hududidagi chiqindilarni yig'ish maydonlarida ular "qayta ishlanadigan", "qayta ishlanmaydigan" va "oziq-ovqat" toifalariga ajratgan holda yig'ildi. Ushbu hududlardagi ko'p qavatli uylarning chiqindi yig'ish maydonlarida qog'oz, plastik, qora va rangli metallar, shishalar, to'qimachilik materiallari, rezina kabi chiqindilarni sotib olish yo'li bilan qayta ishlab chiqarish tashkil qilinadi. Kelgusida fuqarolar chiqindini shunchaki tashlab yubormaydi, balki pullaydi.



Abdurafiq QORJOV, iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Masalan, davlat xususiy-sheriklik loyihasi ishtirokchilari tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Toshkent viloyatining jami 22 ta shahar va tumanlarida jismoniy shaxslar uchun 1 kishiga oylik 4400 so'm (yuridik shaxslar uchun 61 ming (QQS bilan 68 ming 320 so'm), Samarqand shahri va Samarqand tumanida jismoniy shaxslar uchun 1 kishiga oylik 5000 so'm va yuridik shaxslar uchun 90 ming so'm (QQS bilan), viloyatning boshqa tumanlarida esa jismoniy shaxslar uchun 1 kishiga oylik 4129 so'm, yuridik shaxslar uchun 59 ming 693 so'm (QQS bilan), Farg'ona viloyati shaharlarida jismoniy shaxslar uchun 1 kishiga oylik 5000 so'm va yuridik shaxslar uchun 48 ming (QQS bilan 53 760) so'm, tumanlarida esa jismoniy shaxslar uchun 1 kishiga oylik 4000 so'm va yuridik shaxslar uchun 48 ming (QQS bilan 53 ming 760) so'm, Andijon viloyatining 16 ta shahar va tumanida jismoniy shaxslar uchun 1 kishiga oylik 3500 so'm va yuridik shaxslar uchun esa 47 ming 500 so'm (QQS bilan) to'lov miqdori belgilandi.

Bu boradagi to'lovning eng katta miqdori poytaxtimiz aholisiga to'g'ri keladi. Toshkent shahri bo'yicha har bir kishi uchun 7500 so'm hamda yuridik shaxslarga 1 tonna uchun (QQSsiz) 188 ming 808 so'm va 1 kubometr uchun (QQSsiz) 89 ming 977 so'mni tashkil etadi.

Amaldagi narxlar oshirishining sababi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi tomonidan quyidagicha izohlanadi:

"Tahlillarga ko'ra, o'tgan davr mobaynida to'lov tariflariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, xususan, ish haqi 1,5 barobar, avtotransport yoqilg'i-moylash mahsulotlari va ehtiyot qismlari qiymati hamda kommunal xizmatlar, jumladan, elektr energiyasi, ichimlik va oqova suvi narxlari 2 barobar, siqilgan tabiiy gaz narxi 4 barobar, benzin 1,5 barobar, dizel yoqilg'isi esa 2 barobar oshgan. Biroq respublikada qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun tasdiqlangan to'lov tariflari oxirgi 2-4 yil davomida qayta ko'rib chiqilmagan. Bu esa sanitar tozalash korxonalarining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning 2022-yil yakuni bo'yicha rentabellik darajasi keskin pasayib ketishiga olib kelgan".

Haqiqatan, yig'ilib qolgan muammolar qamrovi katta edi. Ularning asosiy jihatlari xususida avvalgi tahlillarimizda ham mulohaza yuritgan edik.

7 million tonna kichkina raqam emas

Dunyoda qattiq maishiy chiqindilar miqdori aholi jon boshiga har yili 1 foizga ortayotgan bir paytda O'zbekistonda keyingi yillarda iqtisodiy rivojlanish, aholi turmush darajasi yaxshilanishi natijasida o'sish 2 foizni tashkil etib, yillik hosil bo'layotgan maishiy chiqindilar miqdori 7 million tonnadan oshgan.

Lekin ularni yig'ish, saralash, qayta ishlash va utilitatsiya qilish ahvoli qoniqarli emas. Mamlakatimizda maishiy chiqindilarni olib chiqish qamrovi 90 foizga yetgan bo'lsa-da (2017-yilda atigi 25 foiz edi), qayta ishlash darajasi Andijonda 45, Buxoroda 43, Navoiy va Namanganda 36 foizni tashkil etgani holda, Qoraqalpog'iston 10, Farg'ona va Qashqadaryo 20 foiz bilan orqada qolgan. 781 mahallada chiqindilarni olib chiqish masalasi 30 yildan buyon hal eutilmagan. Aholining bu sohada xizmatlar bo'yicha debitor qarzdorligi ham ko'p. Tibbiyot va ta'lim muassasalari, bozorlar

uchun 19 ming dona chiqindi konteynerlariga ehtiyoj bor.

Prezidentimiz 2022-yil fevral oyi boshida chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash yuzasidan o'tkazgan video-selektor yig'ilishida ana shunday raqamlarni keltirar ekan, "Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'yab ish tutmasak, ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun biz tabiatga mehr va e'tibor berishimiz, u bilan uyg'un bo'lib yashashimiz kerak", dedi.

2022-yilning o'zida maishiy chiqindi to'plash qamrovini 95 foizga, qayta ishlash hajmini 40 foizga, xususiy sektor ulushini 50 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi. Shu maqsadda import qilinadigan maxsus texnika, butlovchi va ehtiyot qismlar bo'xona bo'jidan 3 yilga ozod etiladi. Saralash va qayta ishlash texnikasi xarid uchun 5 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi va qayta moliyalashtirish stavkasidan oshgan qismi qoplanishi belgilab berildi.

Mazkur yig'ilish bo'lib o'tganiga ham qariyb ikki yil bo'lib qoldi. Bu vaqt mobaynida soha faoliyatini rivojlantirishga doir bir qator hujjatlar e'lon qilindi. Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazining ma'lumotlariga qaraganda, mamlakatimiz hududlarida to'plangan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi 2018-yilda 631,4 ming tonna (9 foiz), 2021-yilda 1 million 697,9 tonna (24,2 foiz), 2022-yilda 2 million 208,2 tonna (32,4 foiz) yetdi.

2023-yilda respublikada mavjud 299 ta chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini aholidan olib chiqib ketgan 6,6 million tonna maishiy chiqindilarning 2,4 million tonnasi yoki 36,7 foizi qayta ishlandi. Ularning asosiy qismi polietilen, plastmassa, qog'oz, shisha, tekstil, metall, shina va rezina mahsulotlaridir.

Sanitar tozalash ishlarini amalga oshirish sohasida jami 155 ta, shundan 50 ta davlat-xususiy sheriklik, 85 ta muqobil korxonalar, 7 ta klaster, 13 ta "Toza hudud" DUK filiallari faoliyat yuritib kelmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki loyihasi doirasida aholiga sanitar tozalash xizmatini yaxshilash maqsadida 300 ta chiqindi tashiydigan maxsus texnika sotib olinib, ularning 286 tasini lizingga berish bo'yicha shartnomalar imzolangan. Sanitar tozalash korxonalarining lizing asosida qo'shimcha maxsus texnikalar sotib olish istagi paydo bo'lgan taqdirda zaxirada yana 14 ta maxsus texnika turibdi.

Barcha maxsus texnikalarni lizingga berish tufayli aholining qamrov darajasi qo'shimcha



chiqindilar bilan bog'liq xizmatlar sifatidan to'liq qoniqishini ta'minlash, ular darajasini xalqaro standartlarga yetkazish, tadbirkorlar uchun jozibadorligi va qayta ishlash darajasini keskin oshirish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirini minimallashtirish, "nol chiqindi" tamoyiliga erishishga qaratilgan.

Farmonda ko'zda tutilgan asosiy o'zgarishlar joriy yil aprel oyidan boshlab amalga oshiriladi, — deydi huquqshunos Shokir Toshqulov. — Yil oxiriga borib esa Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo, Jizzax, Samarqand hamda Xorazm viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda "Toza hudud" DUK

lishmayman. Faqat to'lovni bajarib qo'yishlarini iltimos qilardik.

Endilikda zarur dastak joriy etilmoqda. Farmonga ko'ra, chiqindi xizmatlari uchun to'lov qabul qilish hamda abonentlar hisobini yuritish elektron to'lov tizimlari yoki tijorat banklarining to'lov qabul qilish kassalari orqali amalga oshiriladi. Chiqindi xizmatlari uchun oylik to'lovlardan qarzdorligi bo'lgan abonentlar SMS orqali xabardor qilib boriladi.

Qarzdorlik bo'yicha ogohlantirilgan keyin to'lov qilmagan shaxslarning elektr uchun to'lovlarni qabul qilishni vaqtinchalik cheklash amaliyoti bosqichma-bosqich joriy etiladi. Birinchi bosqichda bu tadbir joriy yil 1-iyundan 6 oylik qarzdorlik uchun Toshkent, Nukus

metan gazlari va elektr energiyasini tortib olish ham rejalashtirilgan.

— Jahon tajribasiga tayangan holda, "nol chiqindi" tamoyillariga rioya qilish bo'yicha yangi tartib va mexanizmlarni joriy etish vazifasi oldimda turibdi, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bosh mutaxassisi Ismat Dilmurodov. — Jumladan, chiqindilarni maishiy turlariga qarab, alohida-alohida to'plash va olib chiqib ketish, yangidan hosil bo'layotgan chiqindilarni poligonlarga yo'naltirmasdan, maksimal darajada qayta ishlash yoki kuydirish talab etiladi.

Poligonlar zamonaviy talablarga javob bermaydi

Bugungi kunda qattiq maishiy chiqindi poligonlari 196 ta, shundan foydalanishdagi

2024-2028-yillarda hududlarda chiqindilarni qayta ishlash, muqobil energiya hamda organik o'g'it ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish ham ko'zda tutilmoqda.

Elektromobil, kontrakt puli va tanlovlar...

Endilikda tadbirkorlar tomonidan o'rnatilgan yo'llardagi foto va video vositalarini o'rnatgan tadbirkorlarga ekologik huquqbuzarliklarni ham qayd etish va Davlat ekologik nazorat inspeksiyasiga xabar berish huquqi berildi. Bunda tadbirkor jarima sifatida undirilgan mablag'ning 20 foizi miqdorida pul bilan rag'batlantiriladi. Aholi esa o'z tashabbusi bilan chiqindixonaga aylangan yoki chiqindilar noqonuniy tashlab ketiladigan hududlarga o'z hisobidan foto va video vositalari o'rnatib, huquqbuzarlaridan undirilgan jarimaning 20 foizini mukofot sifatida olishi mumkin.

Sanitar tozalash korxonalarining kamida 10 yillik tajribaga ega va sadoqatli xizmat ko'rsatgan xodimlari uchun har yili "Tabiat uyg'unligi muvofiqchisi" tanlovi o'tkaziladi. Ularning 100 nafariga davlat OTMga to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan farzandlari yoki nevaralariga kontraktning to'liq summasi to'lab beriladi.

Har yili "Eng toza mahalla" tanlovi o'tkazilib, tanlovda g'olib bo'lgan 14 ta mahallaga chiqindi yig'ish maydonchasi qurish, chiqindi konteynerlarini o'rnatish va daraxt ekish uchun jami 500 million so'm pul hamda xizmatda foydalanish uchun bitadan elektromobil beriladi.

Farmonda 1-aprelgacha javobgarlik choralarini kuchaytirish bo'yicha normativ hujjatlarni tayyorlash ham belgilangan, — deydi Shokir Toshqulov. — Xususan, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlab uchun jarima miqdorini oshirish va huquqbuzarlikni sodir etish vositasini musodara qilish (masalan, chiqindilarni mashinada tashlab qetish, mashina musodara bo'lishi mumkin), chiqindilar tashlab ketilgan joyni tozalash va chiqindilarni olib chiqib ketish majburiyatini yuklashga oid qonun loyihalari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, chiqindi to'plash maydonchalarida chiqindilarni noqonuniy to'plash va olib chiqib ketmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Hududlarni tozalashga mas'ul bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar o'z majburiyatini bajarmagan, atrof-muhit ifloslangani uchun javobgarlikka tortiladi.

Sharhimiz avvalida bir qator xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan maishiy chiqindilar uchun tariflar belgilanganini qayd etgan edik. Farmonda bu borada ham aniq mexanizm belgilangan. Ya'ni har bir sanitar korxonasi o'zi xizmat ko'rsatadigan hududning maishiy chiqindi xizmatlari uchun to'lov summalari ishlab chiqadi.

Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi to'lov summalari asoslanirilganini o'rganib chiqib, Iqtisodiyot va moliya vazirligining hududiy organlariga kiritadi. Ular bergan xulosa bilan viloyat hokimligiga taqdim qilinadi. Hokimlik 20 kun ichida (1-20-noyabr) tariflarni xalq deputatlari viloyat kengashiga kiritadi. Sanitar korxonalariga keyingi yil uchun to'lovlar kengashning 1-dekabr qadar qabul qilingan qarori asosida amalga oshiriladi.



faoliyat olib borayotgan hududlarni davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida chiqindilarni saralash va qayta ishlash texnologiyalari mavjud sanitar tozalash korxonalariga imtiyozli huquq bergan holda o'tkazish choralarini ko'radi. Bunda ishlab chiqarish texnologiyalari hamda kamida 20 ta maxsus texnikasi bo'lgan sanitar tozalash korxonalariga ustuvorlik beriladi.

Mazkur subyektlar yagona elektron tizim orqali xizmat ko'rsatadi. Tizimga ulanmagan korxonalar bilan shartnoma bekor qilinadi va ular xizmat ko'rsatadigan hududlar davlat-xususiy sheriklik asosida boshqa subyektga beriladi.

Mutaxassislarning qayd etishicha, chiqitga chiqqan shisha idish — bir million yil, plastik ichimliklar idishlari 450 yil, alyuminiy konserva bankasi 80-200 yil, kuchlanish batareyalari 100 yil, neylon mato 30-40 yil, charm poyabzal 25-40 yil mobaynida chiriydi va hokazo.

Xonadondan chiqqan ana shunday chiqindilar dastlab mavze va mahallalardagi yig'ish shoxobchalarida to'planadi. Toshkent shahri o'zida ularning soni mingdan ortiq. "Maxsus" davlat unitar korxonasi ma'lumotlariga ko'ra, shoxobchalarning 72 foizi jamiyatga, qolgan xususiy sektorga qaraydi.

Hozir poytaxtda yashovchi aholining biz xizmat ko'rsatayotgan korxonaga tegishli qarzi 17 milliard so'mga yetgan, — deydi Toshkent shahar "Maxsus" DUK bosh inspektori Ismoil Sa'dullayev. — Prezidentimizning joriy yil 4-yanvar kuni imzolagan farmoniga qadar qarzdorlikni undirish bo'yicha ta'sirchan dastakka ega emas edik, desam yang-

shaharlari hamda viloyatlar markazida amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichdan, ya'ni 1-noyabrdan 3 oylik qarzdorlik sabab elektr uchun to'lovlarni qabul qilish respublikaning barcha hududlarida cheklanadi. Uchinchi bosqichda cheklov 2025-yil 1-yanvardan 1 oylik qarzdorlik uchun amal qila boshlaydi. Demakki, kelasi yildan boshlab chiqindilarning qarzi o'z vaqtida to'lasangiz, elektr ta'minoti bilan bog'liq muammoga duch kelmaysiz.

Bundan tashqari, 2024-yil 1-apreldan ko'chmas mulk hamda avtotransportlari bilan bog'liq bitimlarni notarial tasdiqlashda qarzdorlik mavjudligi Yagona elektron tizim orqali onlayn tekshirilib, qarzdorlik bartaraf etilgan, notarial harakat amalga oshiriladi.

Toshkent shahri o'zida har kuni 2300 tonnaga yaqin chiqindi olib chiqiladi. Ohangarondagi poligonga respublikaning boshqa hududlariga qaraganda ancha katta hajmda chiqindi olib kelinsa ham, ish jarayoni juda oddiy. Chiqindi to'kiladi, mexanizatorlar buldozerlar orqali ularni surib, yoyib chiqadi, ustidan tuproq bilan yopilib, rekultivatsiya qilinadi. Keyin navbatdagi maydonga o'tiladi.

Hozirgi kunda poligonni tartibga solish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, — deydi Toshkent shahar "Maxsus" DUK bosh inspektori Ismoil Sa'dullayev. — Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi kredit mablag'lari yo'naltirilgan holda, uning yonida 30 gektar yer ajratilib, xalqaro talablarga javob beradigan yangi poligon qurish ishlari tez orada nihoyasiga yetadi. Mavjud poligonlardan farqli ravishda,





Yangicha yondashuvlar

“Dunyo olimlari fazoni zabt etayotgan bir pallada...” deb boshlanadigan tanbehlariga qulog'imiz o'rganyapti. O'zimiz anglab-anglamay bu jumlaning nutqimiza ifodalashga odatlanaymiz. Biroq ko'zimizni ochib qarasaq, tiniq shuur bilan atrofini idrok etsak, yurtimizda kashfiyotlar qilayotgan, bilimni foydali ixtirolarga yo'naltirayotgan, o'z sohasida muvaffaqiyat qozonayotgan yosh olimlar talaygina. Esingizda bo'lsa, hindlarning “Uch savdoyi” degan kinosi bor. Shu kinodagi bosh qahramon “Siz osmonga qarab Yupiterni ko'rolmasangiz, bu — osmonda Yupiter yo'q degani, emas-ku?!” deydi. Ha, garchi biz shaxsan bilmasak-da, yurtimizda yetuk innovatsion loyiha va ixtirolar qilayotgan iqtidorli yoshlar ko'p. Yaqinda shunday yoshlardan birini o'zimiz uchun kashf etdim.



IQTIDORLI VA IXTIROCHI YOSHLAR MANZILI

yo'xud o'simlik “ehtiyoji”ni sezadigan qurilmadan sun'iy intellekt bilan boshqariladigan elektrotraktorgacha bo'lgan yo'l

ROBOT INSONGA SUV UZATADI

Tomchiga boqib, ummonni tafakkur qiladilar. Yosh olim Avazbek Tursunqulov boshchiligidagi amalga oshirilayotgan loyihalarni ko'rib, bu sohada erishilajak natijalar qanchalik ahamiyatli ekanini his qiladi.

Avazbekning Smart DIS (Smart Drip Irrigation System) loyihasi nabotot olami uchun kerakli bo'ladigan suv, mineral o'g'it va havo namligi miqdorini, shuningdek, haroratni doimiy o'lchab, nazorat qilib turishga mo'ljallangan. Qurilma olingan ma'lumotlar asosida tahlillar qilib, fermer va dehqonlar uchun qulaylik yaratadi. Smart DIS TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining Quyi Chirchiq tumanida joylashgan dala o'quv poligonida test sinovlaridan o'tkazilgan va ijobiy natijadan so'ng “Qodirbek” fermer xo'jaligiga o'rnatilgan. Jahon banki tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida yurtimizning 6 ta hududida Smart DIS qurilmalarini o'rnatish rejalashtirilgan. Hozir bu qurilmalarning yig'uv-tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Yana bir loyiha HETA (Haydovchisiz elektr traktor agregati) bo'lib, asosan, yemi yumshatish, tekislash, shudgorlash, o'g'itlash va og'itilgi 4 tonnagacha bo'lgan yuklarni bir joydan ikkinchi joyga olib borish uchun xizmat qiladi.

— HETAning narxi xorijdan O'zbekistonga kirib kelayotgan elektrotraktorga nisbatan arzon, imkoniyati esa bir xil. Fermer xo'jaliklarida, bog'dorchilikda va tomorqa



egalariga asqatadi, — deydi Avazbek Tursunqulov. — Elektrotraktorga to'liq sun'iy intellekt bilan boshqariladigan bo'lgach, yuklarni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga inson omilisiz yetkazib bera olishi rejalashtirilgan. Yuqori tezligi 30 kilometr/soat bo'lib, bir marta quvvatlantirilsa, 90 kilometr gacha yetadi. Quvvatlanish vaqti 45-60 daqiqa. Quyosh nuridan ham qisman quvvatlanadi. HETA ni ishlab chiqarishda TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti ko'mak bergan va loyihaning birinchi nusxasi tayyorlangan. So'ngra jamoa boshlang'ich mahsulot bilan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan “Biznesga birinchi qadam”

tanlovda g'olib bo'lib, 60 million so'mlik moliyalashtirishni ham qo'lga kiritgan. Ayni paytda loyihani to'liq sun'iy intellekt bilan harakatlantira olish borasidagi ishlar davom etmoqda.

Navbatdagi loyiha PROBot bo'lib, u issiq suv, sovuq suv yoki boshqa maxsus ichimlik quyib berib xizmat ko'rsatuvchi robotdir. Shuningdek, o'rnatilgan bino haqidagi ma'lumotlar bilan o'zbek, rus, ingliz tillarida xabardor qilishi va turli ogohlantirishlar berishi mumkin. Uning bosh qismida insonning yuzini tanuvchi maxsus kamera joylashgan, kamera yordamida qonunbuzarliklar sodir etgan shaxslarni tanigan zahoti kerakli joyga xabar beradi. Hozir ushbu PROBot Toshkent politexnika muzeyida xizmat ko'rsatadi. PROBotning yana bir o'xshashi yaratilgan.

Avazbek Tursunqulov kabi salohiyatli yoshlarning loyihalarini qo'llab-quvvatlaydigan, moliyalashtiradigan, ko'mak beradigan davlatgina dunyoning yetakchi mamlakatlari safida bo'la oladi. Shu o'rinda bir taklifni ilova qilib o'tsak. Hududlarda Yoshlar texnopark va innovatsion markazlar faoliyat olib boryapti. Bunday markazlar faoliyatini yanada takomillashtirish kerak, toki qobiliyatli yoshlar bu yerda innovatsion loyihalar, sanoat namunalarini, inqilobiy texnik qurilmalarni ixtiro qilish, ishlab chiqarish uchun bemaolol kirsin, o'z iqtidorini namoyon eta olsin. Ularning loyihalarini g'oya holdan to amalga oshirilib foyda keltiradigan paytgacha moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda mualliflari olimlarni uzluksiz maosh bilan ta'minlash lozim. Albatta, bu katta xarajat talab qiladi, ammo barcha chiqim ularning loyihalarini natijasida keladigan daromad tufayli qoplanishi shubhasiz.

“BODY TESTER” OLTI TIBBIY KO'RSATKICH HAQIDA MA'LUMOT BERADI



Ko'pchiligimiz uchun qadri bo'lib qolgan “Maftuningman” filmi qahramoni, rejissyor Usmon Turdiyevich shahar...

shahar kezb, qobiliyatli aktyorlarni izlaydi. Yo'lga o'tanishdan avval o'zi “Bundan baribir hech narsa chiqmaydi”, degan bo'lsa-da, biroq yurtdagi iqtidorlarni ko'rib, hayratlanadi. Bugun biz ham har qadamda hayotdan norozi bo'lish, imkoniyatlar yetarli emasligidan nolish o'miga tevarak-atrofga nazar solsak, xulosalarimiz o'zgarishi tabiiy. O'zbekistonda iste'dodli yoshlar juda ko'p. Ularni izlab topib, imkon darajasida moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlasak, yuqori natijalarga erishishimiz muqarrar.

Ana shunday iste'dodlardan yana biri Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabasi Asadbek O'runovdir. Asadbek universitetda tashkil etilgan “Cosmos Innovation” jamoasi asoschisi va yetakchisi hisoblanadi. Uning

boshchiligidagi jamoa elektromobil akkumulyatorlarining issiq iqlimli mamlakatlar uchun universal moduli — “Fresh Energy” loyihasini tayyorlagan.

So'ngi vaqtlarda amalga oshirilgan va ko'p e'tibor qaratilayotgan loyiha bu — “Body Tester” loyihasidir. Loyiha inson tibbiy ko'rsatkichlarini o'lchab beruvchi innovatsion qurilma sanaladi. U bir vaqtning o'zida oltita (bo'y, vazn, puls, qondagi kislorod miqdori, tana harorati, qon bosimi) tibbiy ko'rsatkich haqida ma'lumot beradi va bu ma'lumotlarni 1,5-2 daqiqa ichida qog'oz ko'rinishida taqdim etadi. Bundan tashqari, yurtdoshlarimizning tibbiy shaxsiy kabinetini shakllantirishda, ularning davomli tibbiy ko'rsatkichlarini qayd etib borishda ham katta yordam beradi. Bu qurilmaning keng tarqalishi ta'kidlab o'tganimiz oltita ko'rsatkichni o'lchashdagi

inson omilini, ortiqcha vaqt isrofini, navbatlar sonini keskin kamaytiradi.

— Mazkur qurilma Toshkent shahar hokimligi binosida, DMC klinikasida hamda Olmazor tumani hokimligida o'rnatilgan, — deydi Asadbek. — Loyiha 2023-yil 25-dekabr kuni “Yoshlar forumi — 2023” doirasida bo'lib o'tgan “Rahbar va yoshlar” ochiq muloqotida qo'llab-quvvatlandi.

Har bir manfaatli g'oya, innovatsion loyiha va ixtiro mualliflarini rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash orqaligina yuksak taraqqiyotga erishish mumkin. Zero, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun ilimga, ta'limga e'tibor juda muhim.

Samariddin YO'LDOSHEV, O'zJOKU talabasi

Arxeologiya



XORIJLIK OLIMLAR SURXONDARYODA NIMANI QIDIRYAPTI?

Surxondaryo viloyatida arxeologik tadqiqot ishlari olib borayotgan “O'zbek — Fransuz” ilmiy ekspeditsiyasi faoliyatiga bu yil 30 yil to'ladi. Taniqli arxeolog Pyer Lerish mazkur ekspeditsiyaning Fransiya tomonidan loyiha rahbari. Arxeolog deyarli har yili O'zbekistonga kelib, hududlarda hamkorlikda qazishma ishlarni olib boradi.

— Chorak asrdan ko'proq vaqtdan buyon yurtimizda tadqiqot olib boraman. Bundan 5-6 yil oldin O'zbekistonga kelib-ketish bilan bog'liq muammolar, hujjatlarini rasmiylashtirish, doimiy so'rovlar, ish jarayonidagi sharoit arxeologlarimizni bir oz toliqtirardi. Bugun ilm odamlari uchun bunday to'siqlar olib tashlandi, — deydi professor Pyer Lerish.

2017-yildan O'zbekiston — Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi faoliyatida o'ziga xos davr boshlandi. Termiz davlat universiteti va Fransiyaning Ekol Normal Suprier filologiya va arxeologiya ilmiy tadqiqotlar laboratoriyasi o'rtasida shartnoma imzolandi, keng ko'lami ishlar boshlandi.

Ekspeditsiya Termiz tumanidagi Chingiztapa yodgorligida buddavayitlik ibodatxonasining madaniy qatlamlarini va Sherobod tumanidagi Zarabog' hududida Bronza davri yodgorliklarini o'rganmoqda.

— Bir necha yildan buyon Surxondaryoga kelaman. Har kelganimda yangi o'zgarishlarni ko'ryapman, rivojlanish sur'ati ancha tezligini kuzatyapman. Bu jarayon bizga hududning o'tmishini qayta kashf etishga imkon yaratayapti, — deydi Fransiyaning arxeoriyent ilmiy laboratoriyasi katta ilmiy xodimi Joanna Luilliyer. — Qo'shma ekspeditsiyamiz o'ziga xos tarixga ega. Fransiya va O'zbekistondagi universitetlarda talabalar izlanishlar natijasida ma'rufa qilishga taklif qilishadi. Taklifni ijobiy qabul qilaman. Surxon vohasining tarixidan so'zlovchi hamkorlikdagi qazishma ishlari va ularning natijalari haqida talabalarga maroq bilan so'zlab beraman.

Termiz davlat universitetida bundan besh yil muqaddam arxeologiya yo'nalishida bakalavr va magistratura yo'nalishida talabalar qabul qilish

Yillar davomida izlanishlarimiz natijasida Sherobod vohasi arxeologik yodgorliklarining xaritasini yaratdik, yodgorliklarning arxeologik pasportlari tuzildi. Erishilgan natijalar qatorida O'zbekiston tomonidan ekspeditsiyaga berilgan yuqori e'tibor haqida Pragada monografiyamiz ham chop etildi, — deydi chexiyalik tadqiqotchi Ladislav Stancho. — O'zbekiston tomonidan professor Shopo'lat Shaydullayev bilan birgalikda biz mana shu ekspeditsiyaga rahbarlik qilib kelmoqdamiz.

Ekspeditsiya davomida Jondavlatpe, Burgutpe, Sovurtepa, Laylagon kabi yodgorliklarda keng ko'lami arxeologik qazuv ishlari olib borildi. Chexiyalik arxeologlar bilan hamkorlikda Kushon imperiyasining qishloqlari hayoti va tarixi to'g'risida noyob ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

Bu qazishmalarda Chexiya tomonidan, asosan, Karlova universiteti qadimshunoslari ishtirok etmoqda. O'tgan yili Termiz davlat universiteti rahbariyati va arxeologlaridan iborat guruh Chexiyada bo'lib, Karlova universiteti rektori, professor Milena Kralichkova bilan uchrashdi. Muloqot asosan, arxeologiya sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini xususida bo'lib, kelgusida professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi haqida ham kelishib olindi.

Karlova universiteti dunyoning eng qadimiy oliygo'haridan biri. XIV asr o'rtalarida Chexiya qirolli Karl IV tomonidan tashkil etilgan ushbu oliygo'har hozir 55 mingga yaqin talaba (shundan salmoqli qismini xorijliklar tashkil qiladi) tahsil oladi. Karlova universiteti xalqaro reytinglarda dunyoning 500 ta eng yaxshi oliy ta'lim muassasalaridan saifidan muntazam joy olib keladi. Xalqaro ekspeditsiya a'zolari tomonidan



boshlangandi. Dastlabki qaldirg'ochlar bugungi kunda o'zbek arxeologiyasining kelajagi sifatida mamlakatimizning turli hududlaridagi tadqiqot markazlarida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Shuningdek, 2023-yilda oliygo'har tarix fakulteti tarkibida alohida arxeologiya kafedrasini ham tashkil etildi.

Fransuz arxeologi Joanna Luilliyer muntazam ravishda talabalarga “O'rta Osiyoning bronza davri (miloddan avvalgi III-II-mingyilliklar) moddiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari” mavzusida ochiq ma'ruzalar o'qib keladi.

Qadimshunosning ma'ruzasida Sherobod tumanidagi Burgutpe, Kayritpe, Tillabuloq, Tulkitpe yodgorliklarida qo'shma ekspeditsiya tomonidan qo'lga kiritilgan natijalar haqida ma'lumotlar berildi.

Xalqaro hamkorlik doirasida o'zbekistonlik tarixchi olimlar ham Fransiyaning Leon va Arxeoriyent laboratoriyalarida malaka oshirdi. Mobillik asosida nafaqat o'qituvchilar, balki talabalar almashinuvi bo'yicha ham istiqbolli rejalar qilingan.

Surxondaryolik qadimshunoslar — Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilari vohada nafaqat Fransiya, balki Chexiya, Rossiya, Xitoy va yaponiyalik arxeologlar bilan hamkorlikda e'tiborga molik xalqaro loyihalarni amalga oshirmoqda.

Xalqaro ekspeditsiyalarda O'zbekiston tomonidan direktor etib tarix fanlari doktori, professor, taniqli arxeolog Shopo'lat Shaydullayev tayinlangan.

O'zbekiston — Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining ish boshlaganiga ham 20 yildan oshdi. O'zbek va chex arxeologlari hamkorlikda Surxondaryo viloyatida olib borilgan dala-qazuv ishlari jarayonida 300ga yaqin yangi arxeologik yodgorliklar kashf etilgan.

— Ta'kidlash kerak, xalqaro ekspeditsiya ish boshlaganidan buyon O'zbekiston tarixiga doir katta loyihalarni amalga oshirishni ko'zlagandik va o'zaro hamkorlikda maqsadlarga erishdik, deb o'ylayman.

olib borilayotgan izlanishlar natijasida Chexiyada va Yevropada qadimiy Surxon vohasiga, o'zbek arxeologiyasiga qiziqish yanada oshmoqda.

Keyingi yillarda xitoylik arxeologlarning ham mamlakatimiz tarixi, arxeologiyasiga qiziqishi ortgan. Xitoyning Janubi-g'arbiy universiteti bilan tuzilgan memorandum doirasida “Qadimiy insoniyat madaniyati va atrof-muhiti” bo'yicha qo'shma tadqiqot loyihasi ishlab chiqilgan. Ushbu ilmiy dasturda Surxondaryo viloyatining bronza va ilik temir davri arxeologik yodgorliklarini atroflarda o'rganish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston — Xitoy xalqaro ekspeditsiyasi tomonidan Surxon vohasining Boysun, Denov, Angor, Sariosiyo, Uzun tumanlarida 100 dan ortiq yangi arxeologik yodgorliklar aniqlandi, ro'yxatga olindi.

— O'zbekiston — Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etilganining 20 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmada ishtirok etib, O'zbekiston arxeologiyasi ham katta maktab ekanini, Yevropaning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari bilan aloqalar o'rnatilganini bildim. To'g'risi, havas qildim. Chunki bizning hamkorligimiz boshlanganiga ko'p bo'l-madi, ammo istiqbolli. Kelajakda shunday xalqaro ko'rgazmalar tashkil etish havasi uyg'ondi, — deydi xitoylik olim Ma Jiyen. — Sababi, qayerdiki, o'zaro hamkorlikka ishonch va e'tibor bo'lsa, o'sha yerda ilm-fan rivojlanadi. Yevropa davlatlari arxeologlari shu uzoq vaqt davomida samarali ish olib boribdimi, demak, O'zbekistonda bizning ham ishlari yaxshi bo'lishiga ishonchim komil.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamon va shunga hamohang taraqqiyotga yuzlab dunyoga ochilayotgan O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro ilmiy aloqalar muhim ahamiyatga ega. Aslida, xalqaro hamkorlik innovatsionlayrning asosiy drayveridir.

Sarvar TO'RAYEV, jurnalist

Kamolot pillapoyasi

SABZIDAN

qora choy

Chimboylik qiz muvaffaqiyatining siri

Chimboylik hunarmand Qunduz Qurbonovani bugun Qoraqalpog'istonda muvaffaqiyatli tadbirkor sifatida yaxshi tanishadi. U o'tgan yili jurni qayta ishlaydigan dastgoh olib kelib, ishga tushirdi.

— Dastlab faoliyatimni qora uy jibozlari va milliy liboslar tayyorlash bilan boshlagandim. Keyinchalik chimboylik hunarmandlarni birlashtirib, “Hunarmand” markazi tashkil etishga erishdim. Bu yerda 108 hunarmand 11 turdagi faoliyat bilan shug'ullanmoqda, — deydi Qunduz Qurbonova. — Bundan tashqari, chet ellik sayyohlarga xizmat ko'rsatishni ham yo'lga qo'yganmiz. Markazimizga tashrif buyurgan mehmonlar hunarmandchilik mahsulotlari qanday tayyorlanishini kuzatib boradi. Shuningdek, qoraqalpog' milliy taomlarini ta'tib ko'radi. Hududimizdagi tarixiy manzilgohlarga sayohat uyushtiriladi.

Har bir manziling yeri va havosi, umuman, sharoiti tubdan farq qiladi. Taomlari mazasi ham xilma-xil. Masalan, mahalliy aholi sudan foydalanib, tayyorlanadigan qora choyning o'zgacha ta'mini tabiiy o'to'lanlar bilan bog'laydi.

— O'tgan yil xorijlik jumalistlar qoraqalpog' qovunlari bo'yicha tumanimizdagi

“Qamis ariq” ovul fuqarolar yig'inidan ko'rsatuv tayyorlashdi, — so'zini davom ettiradi tadbirkor. — Ular oldiga o'zimizda yetishtirilgan 4 xil qovunni qo'ydim. Qovunlar ta'mini tatib ko'rib, biri-biridan shirin ekanini e'tirof etdi. Haqiqatan, bizda yetishtiriladigan qovunlar juda mazali. Qadimdan otabobalarimiz qovun qoqini shirinlik sifatida tanovul qilgan. Shuningdek, qirov yegan jiydani qobig'idan ajratib olib, kelida tuyib, undan shakar o'mida foydalanilgan.

Men hunarmandlar sulolasining yetinchi avlodi hisoblanaman. Bobolarimiz qora

uy yasagan bo'lsa, momolarimiz milliy taomlar tayyorlab, karvonlarni mehmon qilgan.

Hunarim orqasidan dunyo kezdin. Xitoy va Germaniyada o'z ko'rgazmalarini tashkil etdim. Bularning barchasini milliyligimizga qaratilayotgan e'tibor natijasi, deb bilaman.

Ayni paytda hunarmand Qunduz Qurbonova Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi sayyohlik firmalari bilan shartnoma tuzib, xorijlik mehmonlarni



Orolbo'yiga boshlab kelmoqda. Izlanuvchan qahramonimiz sabzidan qora choy tayyorlashni yo'lga qo'ymoqchi ekan. Aslida, qoraqalpog'liklarda bu usulda choy tayyorlash azaldan bo'lgan. Qunduz esa deyarli unut bo'layotgan ushbu an'anani tiklashni o'z oldiga maqsad qilgan. U yosh bo'lishiga qaramasdan bugun 100 dan ortiq yoshni kasb-hunarini, ishli qildi. Bu barginav navqiron avlod vakilining qilgan ishlari. Tadbirkorlikka qiziqib, o'zlarida ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirib borayotgan yoshlarning ertasi porloq bo'lishini hozirdan tasavvur qilsa bo'ladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri





Boqiy meros

KATTA ASHULA — hayot to'liqini

Maqom Sharq xalqlari tarixida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan bebaho musiqiy merosdir. Ular xalqlarimizning o'ziga xos musiqa boyligi asosida sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan. Keyingi yillarda ushbu noyob merosni o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib qilish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Yaqinda bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham davlatimiz rahbari maqom san'atini ilmiy asosda o'rganish, rivojlantirish va yosh avlod qalbiga singdirish borasida o'rinni muvohazalarni o'rtaga tashladi.

"Patnis ashula" to'liqlari va qochirimi

Katta ashula — Farg'ona vodiysining o'ziga xos yirik ashula yo'li, mumtoz ashula janri va og'zaki professional xonandalik ijodiyotining aytim uslubi va usulidir. U o'ziga xos musiqiy-poetik tili, ijro uslubi va hayotiylik shakli bilan ajralib turadi. Ushbu janrga musiqiy vositalarni ixcham va ta'sirli ifodalash, musiqiy rivojlanish jo'shqinligi va yorqin ta'sirchanligi xosdir. Katta ashulaning obrazlar qiyofasi lirik-falsafiy mavzular orqali ifodalangan va mumtoz she'riyat bilan chambarchas bog'langan.

— Katta ashula deb nomlanishiga sabab — bu ashular ochiq havoda, katta auditoriya orasida baland va kuchli ovoz bilan, keng diapazonda ijro etilishi va o'ziga xos katta mavzu, ijro uslubiga egaligidir, — deydi san'atshunoslik fanlari doktori, professor Rustam Abdullayev. — Uni xalq orasida "patnis ashula" yoki "patnusaki ashula" deb ham atashgan. Ashulani hofizlar qo'lga patnis yoki lipokcha ushlab, ijro jarayonida ovoz yo'nalishini o'zgartirishga hamda o'zini va hamnafasi ovozini tinglashga, uni silkitish orqali ovozni to'liqlatib, qochirimi qilishga yordam bergan. Bu ashular baland pardada ijro etiladi.

"Ey dilbari jononim, ko'p noz-u itob etma..."

Katta ashula o'rta asrlarda marosim va mehnat jo'shiq-aytimlari (baland va kuchli ovoza, erkin usulda jo'rsiz aytishi), katta "maqov" aytilari negizida, mumtoz she'riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz g'azallarni an'anaviy o'qish talqini ("g'azalxonlik") asosida yuzaga kelib, taraqqiy topdi. Professor Rustam Abdullayevning ta'kidlashicha, uning o'tmishdagi namunalarida ishqiylirlik va falsafiy g'azallar bilan bir qatorda didaktik (pand-nasihati), tasavvuf ruhida she'rlar ham kuylangan. Keyinchalik Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlar she'rlari bilan aytila boshlangan. XX asrda zamonaviy o'zbek shoir (Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiy, Chustiy, O'tkir Rashid, Erkin Vohidov) lari she'rlari asosida ham kuylangan. Katta ashula taraqqiyotida aruz vaznidagi masnaviy, ruboiy, muxammas, musaddas kabi poetik janrlar muhim rol o'ynaydi.

Masalan, Miskinning "Ey, dilbari jononim" g'azalini olaylik:

*Ey, dilbari jononim, ko'p noz-u itob etma,
Yuz jabr-u jafu birla holimni xarob etma.
Mastona ko'zing birlan qoshing*

qilichin tortib,

Bir-biriga himo aylab, qatlimga xitob etma.

Aruz vaznida yozilgan bu g'azal tinglovchilarda zavqu hotam, turfa ruhiy kechinmalar uyg'otib, poetik asarlarning katta ashula janri orqali xalq orasida keng tarqalishiga olib keldi. Musiqiylik — she'riyatning eng asosiy fazilatlaridan, deb bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham katta ashula deyilganda xalqimiz nazarida yirik aytim musiqasi asarlari namoyon bo'ladi, vaholanki, musiqa asarlarining o'zi ham mustaqil mazmunga ega va inson qalbining eng nozik tuyg'ularini ifoda eta oladigan san'at turlaridanidir.

So'z kuy bilan bir uslub-usulda "nafas" oladi

G'azallar xalqimizga mantiqan yetib borishida, ular bilan aytiladigan ashulalarning, ayniqsa, katta ashulaning xizmati juda katta bo'lgan. Chunki katta ashulada so'z kuy bilan bir uslub-usulda "nafas" oladi. Ularda she'r va kuy bir-biriga shu qadar uyg'unlashib, singib ketganki, kuyning o'zini alohida eshitganda she'rni ham tinglayotgandek bo'lamiz.

— Hofizlar odatda she'r baytidan boshlang'ich birinchi-uchinchi misralarning har birini navbatma-navbat ijro etadi, — deydi Rustam Abdullayev. — Boshlovchi birinchi misra bilan reja tashlansa, ikkinchi hofiz (agar ikki ijrochidan iborat bo'lsa), shu misrani takrorlaydi. Lekin kuy harakatiga u ayrim o'zgarishlar (variantlar) kiritadi. Keyingi misra bir parda balandroq, ikkala ijrochi tomonidan yana navbatma-navbat aytiladi. Avj qismi ham shunday uslubda yuqori pardalarda ijro etiladi. Har bir band (bayt)ning oxirgi misrasi talqinida, goh misra boshidan yoki misraning yarmidan ashula nihoyasiga yetkazilganda ikkala hofiz birgalikda (unison tarz) kuylab, ashula daromadini boshlovchi tashlab bergan reja darajasiga tushiriladi. Har bir band shu asosda aytiladi. Navbatma-navbat ijro etish usuli hofizlarga ashulaning har qismi, ayniqsa, avj oldidan nafasni roslab olishga, baland pardalarga qiyinlay chiqq olishga hamda yuqori avjga tayyorlanishga yordam beradi.

"Yovvoyi chorgoh" ning ilk ijrochisi

Katta ashula ma'lum bir ohang yoki kuy bilan boshlanadi (asarning asosiy mavzusi) va bu ohang ashula davomida bir nechta variantda ijro etiladi. Katta ashulaning shakllanishida xonish, xirgoyilar muhim



ahamiyatga ega. Ular katta ashula kuyini kuychang holatga olib keladi.

Katta ashulaning xususiyatlaridan yana biri — janr ijrochiligida badihago'ylikdan keng foydalanishdir. Bu esa undagi rehitativ (nutqli) va ohangdorlikning



bog'lanishini ta'minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari va ichki qonuniyatlari bilan boyitadi. Cholg'usiz aytish katta ashulada ijro vaqtida badihago'ylik qilishga katta imkoniyat (ovozni yuritish uchun) va yordam beradi, shuning uchun ham ikki kishi aytgan katta ashula kuy tuzilishi va xarakteri, ritm va naqsh bezaklari (nola, qochirim) bilan ajralib turadi.

Katta ashula janrining taraqqiyoti yo'lida uning janrlar tarkibi ham kengayib bordi. Keyingi asrlarda katta ashulaning "Bir kelsun", "Ohkim", "Adashganman" kabi an'anaviy turidan tashqari boshqa shakllari ham yuzaga kela boshladi. Xususan, "yovvoyi maqom" ikki-besh hofiz tomonidan jo'rsiz, erkin ritmik usulda talqin etiladi. Masalan, "Ushshoq", "Chorgoh", "Bayot", "Segoh"lar shu tarzda ana shu usulda aytiladi. "Yovvoyi ashula" — ommabop ashula yo'llari erkin, badihago'y usulda aytiladi. Biz bu ijroga "Tanovar" va "Munojot"ni kiritishimiz mumkin.

Katta ashulaning cholg'u yo'llari ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, nayda ijro etiladigan "Yovvoyi chorgoh" ilk bor taniqli sozanda-naychi Abduqodir Ismoilov tomonidan taqdim etilgan.

Ijrochilik maktablari rivoji va xalqaro e'tirof

Subhatdoshimiz katta ashulaning rivojlanish jarayonida uning yirik ijrochilik maktablari shakllangani, har biri o'z an'anasini, ijro uslubi va repertuari bilan ajralib turishi borasida jumladan, shunday deydi:

"Qo'qondagi ijrochilik maktablari Rahmonqul tiki, Xalqori, Hamroqul qori, Erka qori Karimov, Sherqo'zi Boyqo'ziyev, Rasul qori Mamadaliyevlar tomonidan rivojlangan. Marg'ilon maktablari esa Mamatbuva Sattorov, Boltaboy Rajabov, Saidmuzaffar Azizov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Solijon Hoshimov, Ibrohimjon Is'hoqov, Musajon Orifjonovlar nomlari bilan chambarchas bog'liq. Odiljon Yusupov, Nabijon Saidnazarov, Jo'rajon va Ergashvov Yusupovlar, Fattohxon Mamadaliyevlar Andijon maktablarini tashkil etgan bo'lsalar, Toshkent maktablari Akbar qori Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov, Orif Alimshumov, Orifxon Hotamovlar tomonidan rivoj topgan. Namanganda esa Mallobov Hamidov, Abdulla G'oziyev, Ibrohim Isoqov ijrochilik maktablari dovuq qozongan. 1984-yilda ilk bor Marg'ildonda katta ashula ijrochilari tanlovi o'tkazildi va u an'anaga aylandi. 2001-yilda Andijonda professional katta ashula ijrochilari tanlovi o'tkazildi. Rossiya, Yevropa va AQSHda o'tkazilgan nufuzli Xalqaro folklor tanlovlarida o'zbekistonlik katta ashulachilar sharaf bilan qatnashib kelayotgan e'tiborga molikdir".

Farg'ona vodiysining o'ziga xos yirik mazkur ashula yo'li musiqa janri, ulkan xonandalik ijro uslubi va usuli sifatida UNESCO tomonidan tan olib, 2009-yilda "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi" Representative ro'yxatiga kiritildi. Markaziy Osiyo miqyosida Katta ashula janri muhofazasi, uni saqlash va targ'ib qilish usullari, foydalanish va ommalashtirish yo'llari ACCU UNESCO (Yaponiya) markazi tomonidan e'tirof etilib, Oltin medal bilan taqdirlangan. Katta ashula yo'llari xalqimiz orasida mumtoz musiqiy merosimizning noyob boyligi sifatida yashayveradi va yangidan-yangi musiqa asarlari yaratishda hayotbaxsh manbalardan bo'lib qoladi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA tayyorladi.

Yoshlik shijoati

HAR QADAMDA BIR MADANIYAT BOR

Surxondaryolik Muzaffar Haqberdiyev sakkiz yildirki, Hindistonning Nyu-Dehli shahrida yashaydi. 2010-yilda Termiz davlat pedagogika universitetining O'zbek filologiyasi fakultetini bitirib, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga hujjat topshirdi. Xorijiy mamlakatlar tarixi fakultetida urdu tili bo'yicha tahsil olgan Muzaffar magistraturani Hindistonda o'qidi. 2015-2017-yillarda Javoharlal Neru universitetida hindiy va urdu tillari bo'yicha magistraturani tamomlagach, media va kommunikatsiya tadqiqotlari fakultetida ham tahsil oldi. Uch yildirki, "O'zbek va urdu tillari o'rtasidagi mushtarak so'zlar" mavzusida ilmiy ish qilyapti.

— Bolaligimda ko'pchilik qatori men ham hind kinolarini sevib tomosha qilardim. Hind tilini o'rganishga qiziqish o'sha davrlarda boshlangan, — deydi Muzaffar. — Sharqshunoslik institutida o'qishimga ham ayni shu qiziqishim sabab bo'lgan. Bu yerda ko'p tillar o'qitiladi. Xususan, bizning fakultetimizda fors, arab, xitoy, hindiy-urdu tillari o'rgatilgan. Ustozimiz Muhayyo Abdurahmonova hindiy-urdu tillariga qiziqishimiz yanada ortishiga sababchi bo'lgan.

2011-yil avgust oyida mamlakatimizdagi Hind madaniyat markazi orqali Hindistonga o'n kunlik safar qildik. O'shanda hindlarning turmush tarzi, madaniyati, milliy taomlari haqida qisqacha ma'lumot olganmiz. Safar chog'ida universitetni tamomlasam, bafurja kelaman, deb niyat qilgandim. Yaratganning o'zi maqsadga yetkazdi.

Urdu tilida fors so'zlar ko'p uchraydi. Aynan shu so'zlar bizga mushtaraklikni olib keladi. Masalan, zamin so'zi urdu tilida ham zamin, ilm, ulamo, imorat, umr, ibtido, illat, abadiy singari yana ko'plab so'zlar har ikki tilda bir xil ma'no anglatadi. Urdu va o'zbek tili o'rtasidagi mushtarak so'zlar bo'yicha ilmiy ish qilib, ikki xalq o'rtasidagi munosabatlarga hissa qo'shishni o'zim uchun sharaflay, deb bilaman.

O'zbek va hind xalqlari o'rtasidagi ilmiy, madaniy va ma'naviy aloqalarning uyg'un jihatlarini ko'p. Jumladan, urdu va o'zbek tillarida umumiy hisoblanish mushtarak so'zlar 5 mingdan ortishini alohida ta'kidlash joiz. Urdu tiliga forscha so'zlar ko'proq o'zlashgan. Ayni fors tili orqali esa, arabcha so'zlar keng o'zlashtirilgan, — deydi Sharqshunoslik universiteti professori Muhayyo Abdurahmonova. — Shogirdim Muzaffar Haqberdiyev qo'l urgan tadqiqot ishining obyektini urdu va o'zbek tillaridagi mushtarak so'zlar tahlili hisoblanadi. Tadqiqotchi bu so'zlarning arab va fors tillaridan qay tarzda o'zlashgani va qo'llanish darajasiga asosiy e'tibor qaratyapti. Ishonch bilan ayta olamanki, Muzaffar kabi izlanuvchan yoshlar urdushunos mutaxassis sifatida ikki davlat, ikki millat orasidagi keng qirrali aloqalarning bundan-da taraqqiy etishiga xizmat qiladi.



O'qishimizning dastlabki kezlarda yotoqxonada uch mahal ovqat berilar edi. Ko'pincha tushlikda va kechki ovqatga achchiq taomlar yer edik. Avvaliga bir o'z qiyaldik, asta-sekin o'rgandik. Noni bizning nonlarimizga umuman o'xshamaydi. "Chapati" deydi, "ruti" degani ham bor. Biroq Kashmirda O'zbekistonga yaqin bo'lgan jihatlarini ko'ramiz. Chunki kashmirliklar bizga o'xshab tandir non yopadi. Qolaversa, Kashmir mevalari Hindistonning boshqa ko'p joylarida o'smaydi. Xususan, shaftoli, gilos, olma barcha viloyatlarda ham yo'q.

Tarixga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni fath qilganidan so'ng diyorimizdan turli mevali daraxtlar keltirib ektirgan. Tarvuz, qovun, shuningdek, anor, olma kabi mevali



Muzaffar keyingi yillarda Hindiston bilan ko'plab sohaler doirasidagi aloqalarimiz jadallashgani haqida gapirar ekan, ilmiy sohada yutuqlarga erishilayotganidan, ayniqsa, Dehli universitetida O'zbek tili kafedrasini ochilganidan xursandligini to'liqlanib so'zlaydi.

— O'zbek tilini o'qitish uchun ustozlar almashinuviga kelishilgani zo'r bo'ldi, — dedi subhatdoshimiz. — Ta'limdagi hamkorlik eng samarali va ezgu ish desak, xato bo'lmaydi. O'zbekistonda ham ko'plab hind talabalari tahsil olaypti.

Muzaffar mamlakatimizning Dehligi elchixonasida tashkil etilgan Hindistonda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar uyushmasi raisi hamdir. Shuningdek, elchixonada bo'lib o'tadigan madaniy tadbirlarni o'tkazishga ko'maklashadi. Xorijda ilmiy faoliyat olib borish, tashkiliy ishlarga ham bosh qo'shib yurish oson emas, albatta. Ayniqsa, achchiq taomlarni xushlaydigan mamlakatda...

— To'g'ri, hindlar ko'proq achchiq taom iste'mol qiladi, dukkakli mahsulotlardan tayyorlangan taomlar, ayniqsa, guruchni yaxshi ko'radi. Biz yoqtiradigan taomlari ham bor, albatta. Batter chicken, biryani, tanduri chikenni achchiq bo'lsa ham yaxshi ko'rib iste'mol qilamiz.

daraxtlar Hindistonga bizning yurtimizdan borgan. Mana shuning o'zi ham bizga g'urur bag'ishlaydi. Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosdan tashqari ular yaratgan tabiat go'zalliklaridan ham faxrlanib yuramiz.

Muzaffar "Hindiston juda katta mamlakat bo'lgani tufayli har qadamda bir madaniyat bor", degan gap bejiz emasligini ta'kidlab, shunday deydi:

— Nyu-Dehlining aholisi 30 milliondan oshadi. Turli hududlardan kelib o'rnatib qolgan odamlarning madaniyati ham turfa bo'lishi tabiiy. Shuning uchunmi, O'zbekistonga bir yilda bir bor kelgan paytlarimiz aeroportdan tushib o'zimizni boshqacha his qilamiz, ko'ngil yumshaydi. Yurt havosi, tuprog'i, mahallasiyu ko'chasi, o'zbek tilida gapirayotgan odamlar, onangiz pishirib berajak taomlar, umuman, bari-bari ko'ngilga o'zgacha zavq beradi. Ifori o'zgacha bunday zavqni tuyish baxtiga muyassarlik bizni hamisha nuri manzillar sari chorlayveradi.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 123.
8848 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhir: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05